

Koreyada ayollar iyerarxiyasi shakllanishi va saroy ayollari qatlamining siyosiy jarayonlardagi o‘rni

Nazarqulova Nodira Baxtiyor qizi*Tarix*

fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

o'qituvchisi, osivouzturk@gmail.com

Choson davri ijtimoiy tabaqalashuvi holati inqirozga yuz tutgan Koryo qirolligidan qolgan sotsial merosga mos edi. Qariyb ikki yildan buyon davom etib kelayotgan tinimsiz urushlar, yapon qaroqchilarining doimiy talon- taroqlikdan iborat hujumlari mamlakatni siyosiy va iqtisodiy tushkun holatga tushirgan. Yangi sulolaning hokimiyatga kelishi hamda mamlakatni isloh qilishga bo‘lgan urinishlari o‘z samarasini berib, davlatda mo‘tadillik hukm surishi uchun ham biroz vaqt o‘tgan. Biroq bu o‘tgan vaqt ichida jamiyatda bir qator jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, yangi konfutsiychilik ta’limoti ta’sirida davlat mafkurasi o‘zgartirildi, ijtimoiy tabaqalanish tizimi yangilandi.

An’anaviy Choson jamiyati aholining tabaqalanishi tug’ilgandayoq belgilanadigan kasta tizimiga o‘xhash bo‘lgan. Qonuniy jihatdan Choson qirolligi davrida aholi ikki toifga bo‘lingan: *yangmin* – yaxshi kishilar hamda *chonmin* – quyi kishilar. Amalda esa, Choson jamiyati to‘rt asosiy tabaqaga bo‘lingan edi: (1) *yangbanlar* [양반(兩班)] – zodagonlar tabaqasi, (2) *chunginlar* [중인(中人)] – oddiy kishilar, (3) *sanginlar* [상인(常人)] yoki *yangminlar* [양민(良民)] – o‘rta tabaqa (ularga dehqonlar, baliqchilar, tijoratchilar, hunarmandlar kirgan) vakillari hamda (4) *chonminlar* [전민(賤民)] past tabaqaga mansub kishilar (ularga go‘rkovlar, teriga ishlov beruvchilar va qassoblar kirgan). 1650-yilgacha shomonlar, ekzorsistlar, tomoshabozlar va *kisenglar* [기생(妓生)] qullar bilan ayni darajada bo‘lishgan. Li sulolasi qonunlarida bunday bo‘linish xiralashtirilib ko‘rsatilgan. Misol uchun, barcha yanginlar (qullar yoki tabaqaga kiritilmaganlardan boshqa aholi

qatlami) maktablarga qatnash, imtihonlarni topshirish hamda davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqiga ega edilar. Haqiqatda esa, yangbanlar oddiy aholidan alohida ajralib turishgan.

Choson jamiyatni mustahkamlanib borgani sari, oila genealogiyasi va kelib chiqishi imtihonlarsizga kimlar kirishi mumkinligini belgilab beradigan yagona asosga aylanib bordi. Imtihon topshiruvchining ajdodlari ota tomonidan uch avlod hamda ona tomonidan ham uch avlod tekshirilgan; bundan maqsad bu nomzod haqiqatdan yaxshi kishilarga mansubmi yo‘qmi – shunga oydinlik kiritish bo‘lgan. Ma’lumki, yangi tug’ilgan farzandning nasl-nasabi (familiyasi), dini, millati, urug’i, qaysi qabilaga mansubligi va hokazolar ota yoki onasidan qaysi biriga qarab belgilanishiga ko‘ra ikki xil tuzum mavjud: matriarxal – onaga yo‘nalgan va patriarchal – otaga yo‘nalgan oila.⁵⁴ Har bir tuzum o‘zining qat’iy qoidalari ega: jamiyatda hukmronlik qiluvchi din va axloq qoidalari ham hisobga olganda, albatta, bola otaniki yoki aksincha, onaniki hisoblanadi. Har ikki taraflama qarash ko‘p hollarda qabul qilinmagan. O‘rta asrlarda Koreya yarimorolidagi patriarchal tuzumning o‘ziga xos jihatni aynan mana shu yerda diqqatni tortuvchi bir qancha qoidalarga ega ekanligidir.

Choson qirolligida tug’ilgan bolaning nasabi nafaqat uning ota-bobolari kimligi bilan, balki uning onasi qaysi tabaqaga mansubligi, qonuniy yoki noqonuniy xotin ekanigi, bolani birinchi turmushidanmi yoki ikkinchi turmushidan dunyoga keltirganmi kabi masalalarining nechog’lik ijobjiy tarafida ekanligiga ham bog’liq holda belgilangan. Bu tarafdan, yuqoridagi kriteriy koreys jamiyatining matriarxallik elementlarini o‘zida aks ettiradi. Davlatda barcha huquq va imtiyozlardan foydalanish uchun bola ssning nafaqat otasi erkin o‘rta tabaqaga mansub kishi bo‘lishi zarur edi, shuning barobarida onasi ham ma’lum bir belgilangan talablarga javob berishi kerak edi. Biz quyida ko‘rib chiqadigan ayollar iyerarxiyasining har bir vakilasi o‘z farzandiga o‘zi mansub bo‘lgan qatlamning huquq va imtiyozlarini yoki aksincha huquqsizlik va cheklovlarini to‘g’ridan-to‘g’ri meros qilib o‘tkazgan. Hatto bu meros tug’ilgan bolalarning nomlanishida ham o‘z aksini topgan.

Yangban statusi, shu bilan birga, soliq imtiyozlari bilan bog‘liq edi; ular uy solig‘idan ozod edilar. Yangbanlar jamoat ishlarida tekin qatnashish hamda harbiy xizmatdan ozod qilinishgan. Biroq, yangbanlarning kanizaklardan dunyoga kelgan farzandlari ikki toifaga bo‘lingan: *so* – agar onasi yaninlarga mansub bo‘lsa, *ol* – agar onasi “quyi tabaqa”dan kelib chiqqan bo‘lsa. Bunday bo‘linish bekorga belgilanmagan. Garchi, onasining quyi tabaqaga mansubligi o‘g’lining ham nasl-nasabini belgilab bermasa ham, uning kelajagiga, davlat va jamiyatdagi o‘rniga hamda kelajagiga to‘g’ridan-to‘g’ri ta’sir qilgan. Ularning katta qismiga davlat imtihonlarini topshirishga ruxsat berilmagan. Natijada, bu toifadagi kishilarni, shuningdek, quyi tabaqadagi aholi vakillarini *chunin* – “[umumiyl ijmoiy o‘rniga ko‘ra] o‘rta [qatlamdag] kishi” degan umumiyl nom bilan atay boshlashdi.

Choson davri Koreyada mavjud ijtimoiy tizim noqonuniy farzandlar muammosini o‘zida aks ettirar edi. Yuqori tabaqaga mansub kishilarning oddiy xalqqa mansub yoki qullandan nikohsiz xotini, ya’ni kanizagi bo‘lishi odatiy hol hisoblangan. Bu ayollar *chop* deb yuritilgan. Choplardan dunyoga keladigan farzandlar *soja* degan muammoni keltirib chiqargan. Li sulolasid ilk davrlarida, agar qonuniy xotinidan farzandi bo‘lmasa, *soja* (ya’ni nikohsiz tug‘ilgan o‘g‘il) merosxo‘r deb tan olinishi mumkin bo‘lgan. Ammo bu amaliyot ma’qul ko‘rilmagan va odatda uning o‘rniga jiyanlar yoki boshqa erkak qarindosh vorislikka tayinlangan. Sojalarga fuqaro imtihonlarini topshirish ta’qiqlangan va davlat idoralarida faoliyat yuritishi mumkin bo‘lmasan. Natijada, ular boshqa bir merosiy – *sool* guruhini tashkil qilishdi. Jamiyatda sojalar va ularning diskriminatsiyasi muammosi butun davr mobaynida muhim masala bo‘lib keldi. Bu holat shunday kanizaklardan dunyoga kelgan ko‘philik olimlar hamda ba’zi qirollar uchunadolatsizlik bo‘lib tuyulgan. Ota urug‘i tashkilotlari kuchining o‘sishi sojalarning og‘ir ohvolini faqatgina yanada yomonlashtirdi, garchi ota uchun o‘zining ikkinchi rafiqasidan bo‘lgan o‘g‘liga boyligining bir qismini meros qilishiga to‘g‘ri kelishi ham mumkin bo‘lgan. Bu muammo oila haqidagi konfutsiychilik ta’limotining kuchli ta’sirini o‘zida aks ettiradi hamda, balki, Choson jamiyatining o‘zining yangbanlar va aholining qolgan qatlamlari o‘rtasida keskin farqni o‘rnatgani bilan bog‘liq

zodagonlik tabiatи ham muhim bo‘lishi mumkin. Sojalarga fuqaro imtihonlarini topshirishga yoki mol-mulkni meros qilib olishga ruxsat berish bu keskinlikni kamaytirishi mumkin edi. Bu, shuningdek, ona urug‘ini belgilab beradi va o‘g‘il farzandlar bu darajadagi diskriminatsiyaga uchramaydigan Xitoydagidan ko‘ra ko‘proq umumiy jihatdan maqomni merosiy olish Koreyada muhimroq edi.

Oddiy xalq aholining asosiy katta qismini tashkil qilgan. Ba’zida ijtimoiy mobillik bo‘lishi mumkin edi, biroq ularni yangbanlar bilan imkoniyatlarga egalik bilan belgilanuvchi katta devor ajratib turar edi. Yangbanlardan farqli ravishda, oddiy xalq soliqlardan ozod qilinmagan, jamoa ishlarida qatnashish hamda harbiy xizmatni o‘tash majburiy sanalib, amalda imtihonlardan to‘sib qo‘yilgan. Ko‘pchilik oddiy aholi vakillari kambag‘al dehqonlar bo‘lib, o‘zlarining bir qismgina yer maydonida yoki yangbanlar qo‘l ostidagi yerlarda yetishtirilgan donning bir qismi evaziga ijarachi sifatida ishlashgan.

Garchi oddiy xalq kambag‘al bo‘lsa-da, ular har qalay *yangmin*⁵⁶ bo‘lishdan qonuniy himoyalanishgan edi. Quyi xalq vakillari *chonmin* – “yomon kishilar” deb yuritilgan. Bu chonminlarning katta qismini qullar tashkil qilgan. Uch qirollik davridan tortib to uning 1894-yilda bekor qilinguni⁵⁷gacha bo‘lgan davrda qullik eng asosiy ijtimoiy institut hisoblangan. Birinchi toifa qullar saroy xizmatchilari, amaldorlar, shaxsiy fuqarolar hamda budda ibodatxonalariga tegishli bo‘lgani holda, ikkinchi toifa markaziy va mahalliy hukumat kengashlari hamda qirollik oilasi egaligi ostida bo‘lgan. Shaxsiy qullar ham, davlat qullari ham o‘z ichida *solgo nobi* (uy xo‘jaligi qullari) va *oego nobi* (uydan tashqarida ishlaydigan qullar) toifalariga bo‘lingan.

Qullardan tashqari, aholi tabaqlanish tizimiga kiritilmagan qatlamlar mavjud bo‘lgan. Ularga mehmonxona xo‘jayinlari, kemachilar, fohishalar, qiziqchilar, shuningdek, notoza ishlar bilan shug‘ullanuvchi boshqa turdagи kasblar: teriga ishlov beruvchilar hamda qassoblar kirgan. *Pekchong* yoki qassoblar bu qatlam ichida eng mashhurlari edi hamda pekchong atamasi butun bu turdagи kishilarning barchasiga nisbatan qo‘llanilgan.

Koreyadagi boshqa bir kichik merosiy xarakterga ega guruh *chungin* (중인)lar bo‘lib, ular yuqorida tilga olingan uch farqli toifa vakillari: yangbanlar, oddiy fuqarolar va “past (yomon) kishilar”ning xech biri bilan mos tushmas edi. *Chungin* (o‘rtta qatlam kishilar) atamasi ixtisoslashtirilgan kasb egalari va vorisiy kotiblarga nisbatan qo‘llanilgan. Bu kamsituvchi mazmundagi ibora o‘rtta Choson davrida kelib chiqqan. Ixtisoslashtirilgan kasb egalariga *chapgva* (잡과) imtihonini topshirgan xattot, hisobchi, qonuniy malaka egalari, ya’ni qonunshunoslar, astronomlar, tarjimonlar va bashoratchi kabilar kirgan. Qirollik rivojlanib borgani sari chunginlar va amaldorlar o‘rtasidagi tafovut keskinlashib bordi. Bunga konfutsiychilik ta’limotining yuqori g‘oyaviy qarashlarga ega umumiyl bilim egalarini afzal ko‘rish tarafdori ekanligi hamda yangbanlarning amaliy bilim va ixtisoslashtirilgan kasblar bilan shug‘ulanuvchilarga nisbatan past nazar bilan qarashi sabab bo‘lgan. Chunginlarning qanday kelib chiqqanligi noma’lum; ba’zilari quyi pog‘ona ijtimoiy qatlamdan kelib chiqqan, boshqa birlari esa yangbanlarning noqonuniy (ya’ni nikohsiz tug‘ilgan) farzandlari avlodlari bo‘lishgan. Shajaraviy kelib chiqish mavqeni belgilab beruvchi katta faktor bo‘lgan jamiyatda bu “o‘rtta kishilar” yuqori davlat lavozimlariga yaqinlashtirilmagan. Ular davlat mansabini egallashda o‘z maqomlarini qayta tasdiqlash uchun ixtisoslashtirilgan imtihonlarga bog’lanib qolgan vorisiy xususiyatga ega sinf bo‘lib qolishdi.

Har bir saroyda bo‘lganidek, Choson qiroli saroyida ham har kuni minglab yumushlar: tongda qirolning uyg’onishidan boshlab uning yuvinishi, kiyinib uch mahal taomlanishi, uplashi uchun xobgohning hozirlanishi, shuningdek, qirolichalar, malikalar hamda qirol joriyalarining turli topshiriqlarini bajarish, tikish-bichish kabilar bajarilar edi. Tabiiyki, bu ro‘yxatdagilarning juda katta qismi ayollar zimmasidagi ishlar edi. Ayollarga bo‘lgan ehtiyoj natijasida saroyda maxsus lavozimlar tizimi va xodimalar uchun vazifalar taqsimoti, ularni saralab olish uchun imtihonlar sistemasi ishlab chiqildi.

Saroyning ayol xizmatchilari yoki amaldorlari – *kungnyo* 58lar koreys mumtoz va zamonaviy adabiyotida sezilarli o‘rniga ega. Mashhur anonim hikoyalarning

birida XV asrda shahzoda Anphyon saroyida yashaga iqtidorli va go‘zal saroy xizmatchisi Unyonning baxtsiz muhabbat haqida so‘z boradi. “Kyechig yillari solnomasi” (1613) va “Oliyhimmat Inhyon hazrati oliyalarining asl tarixi” kabi asarlar aynan saroy xizmatchilari qalamiga mansubdir. Bu asarlar koreys tili yozushi – xangilda – o‘sha davrga mansub saroy uslubi bo‘lmish *guncheda* yozigan. Zamonaviy pop-madaniyat ham saroy xizmatchilariga alohida e’tibor qaratadi. “Saroy javohiri” va “Don I” romanlari saroyda istiqomat qilgan ayollar hayoti to‘g’risida hikoya qiladi. Saroy xizmatchilari hukmdor qarorgohida muhim rol o‘ynaydi, shu boisdan ham, saroy hayotidan hikoya qiluvchi har bir *dorama* (koreys seriallari)da ular muhim personaj sifatida ishtirok etadi.

Saroy xonimi – *kungnyo* [궁녀], shuningdek, *nein* [내인] (内人) – uy xonimi] yoki *yeogvan* [여관(女官) – mehmonxona xodimasi] deb nomlangan. Bu uch atama bir-biridan quyidagicha farq qiladi: *kungnyo* yoki *nein* saroyning ichida yashab faoliyat yurituvchi ayollarni, *yeogvan* esa *kungnyolarning* saroyda ma’lum bir vaqt mobaynida tajriba yig’ib, professional darajaga chiqqan vakilalaridan shakllangan – ayol amaldor ma’nosini anglatadi. Kungnyolar tarkibi, odatda, saroyga keltirilganida 10 yoshdan oshmagan qizlardan shakllantirigan. Mamlakatning barcha hududlaridan nufuzli oilalardan tanlab olingan bu qizlar 15 yil davomida malakali katta saroy xodimalari tomonidan o‘qitilgan. 15 yillik ta’lim-tarbiya jarayoni nihoyasiga yetgach, bu qizlar oldiniga rasmiy *kungnyo* sifatida emas, balki *susip kungnyo* [수습 궁녀] – tartib-intizomni saqlash uchun mas’uliyatli xodimalar sifatida ish boshlashgan. Bu faoliyat ular uchun sinov muddati ham bo‘lib, bu muddatdan muvaffaqiyati o‘tish bu ayollarnng kelajagini belgilab bergan. Saroyga xodimalik uchun keltirilgan ayollar saroydagi turi-tuman ishlarnigina bajarib, oila qurishi mumkin emas edi. Ular saroyga keltirilgan kundan e’tiboran o‘z hayotini qironga baxshida qilishi lozim bo‘lgan. Aslini olib qaraganda, ular saroyda o‘tkazgan butun umrlari davomida qirolning nikohsiz yoki norasmiy xotinlari⁵⁹ ham hisoblanishgan.

Sinov muddati tugab, o‘z qobililiyatlar va odob-axloqi bilan saroydagi katta ayol bekalar nng ishonchini qozongan susip kungnyolar *nein* [내인 (内人)] darajasiga ko‘tarilgan. Bu ularning rasman saroy xonimi bo‘lganligini anglatar edi. *Nein* darajasiga ko‘tarilgan ayol tahminan 30 yil o‘tganidan so‘ng, hurmatli saroy xodimasi [*ueollõ nein* 원로 내인]ga aylanib, *sanggun* [상궁 (尙宮)] darajasiga ko‘tarilgan. Saroyning asosiy bosh ayol boshqaruvchi ma’nosidagi *sanggunlar* saroyning madaniy hayotida muhim yetakchi o‘rinni egallagan. 60 Ular butun umr saroyda qolib, vafot etgunlariga qadar qiroq oilasiga xizmat qilishgan. Saroyda *sanggunlarning* ikki xil toifasi mavjud edi. Birinchi toifa bu yuqorida ko‘rib o‘tilganidek, 10 yoshligidan boshlab saroya keltirilgan, shu yerda tarbiyalangan ayol xodimlar hisoblangan. Ikkinci toifa esa qiroq, valiaxd va boshqa shahzodalar oila qurbanida yangi qirolichcha, malikalar bilan birga saroya olib kelinadigan xodimalardan tashkil topgan. Bu ikkinchi toifani, shuningdek, *ponbangnein* [ichki xonadon (yoki koreyschasi) “anbang [안방]” deb ham ataluvchi uyning ichki hovlisi/qismi) bekasi –**본방내인(本房內人)**] – olib kelingan saroy xonimi ekanligi anglatgan.

Choson qirolligi ayollar i chida *kungnyo*, *iynyo* [의녀(醫女)], *yeoak* [여악(女樂)] kabilar alohida maqomga ega bo‘lishgan. Kungnyolar, yuqorida ta’riflab o‘tilganidek, saroyda istiqomat qiluvchi ayol xodimlar hisoblanishgan. Albatta, saroyda ularning vazifasi oddiy xo‘jalik yumushlari bilan cheklangan. Biroq qiroq saroyida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan yana qator yumushar mavjud edi. Ular ichida eng muhimlaridan biri – bu, hastalikka chalingan qirollik xonadoni vakilalarini davolash ishlari bilan shug’ullanish hisoblanadi. Yi sulolasi hukmronligi davri axloq qoidalariga ko‘ra, ayollarni erkak tabib ko‘rib qo‘yishi hamda davolashi mumkin emas edi. Shu boisdan ham saroy tibb ilmidan boxabar ayollarga ehtiyoj sezgan. *Iynyo* – lug’aviy ma’nosiga ko‘ra ham “tabib ayol” deb tarjima qilinib, ular tabiblikka maxsus o‘qitilgan. *Yeoak* esa raqsga tushish, qo‘shiq kuylash hamda turli

ziyofatlar vaqtida saroy ahlining ko‘nglini xushlashda mohir bo‘lgan ayollar toifasi sanalgan. Bu yuqoridagi barcha uch toifa ayollar qirollik xonadonidagi qirol [van – 왕], qirolicha [vangbi – 왕비], valiaxd [seja – 세자], shahzodalar va malikalar uchun mas’ul ayollar hisoblanib, saroy atmosferasi va ichki madaniy muhiti uchun javobgar edilar. Saroyning barcha turdagи xonimlariga oylik maosh sifatida davlat g’aznasidan beriladigan natura shaklidagi guruch⁶¹dan tashqari turli imtiyozlarni ham olishgan bo‘lib, bu imtiyozlarning ba’zilari hattoki yangbanlarga ham berilmagan.

Kungnyo, iynyo hamda yeoaklar maxsus mutaxassislikka ega bo‘lishi uchun maxsus tayyorgarlik bosqichidan o‘tishgan. Tayyorgarlik ikki xilda olib borilgan: ba’zilar maxsus maktablarda o‘qitilgan bo‘lsa, boshqalari ustozshogird an’analari asosida ma’lum bir tajribali saroy xonimlariga topshirilgan. Ularning ko‘pincha savodi bo‘lmay, amaliyatda ko‘rganlari asosida bilim va ko‘nikmalarini shakllantirib borishgan. Shogirdlik davri uzoq yillar davom etib, lekin natijalar shunga yarasha yaxshi bo‘lgan. Maxsus mакtabda tahsil ko‘rgan qizlarga nisbatan katta saroy xonimlariga shogirdlikka berilgan qizlarning imtihonlardan o‘tishi ham, keyinchalik saroyda obro‘-e’tibor qozonishi ham oson kechgan. Yillar davomida to‘planib borgan amaliy bilimlarining ko‘pligi ham bunga asos bo‘lgan, albatta.

Yi sulolasi davrida qirol, qirolicha, shahzodalar va ularning rafiqalari (malikalar hamda kanizaklar) saroyning alohida-alohida qismlarida birbirlaridan ayro holatda yashashgan. Saroyda yashovchi barcha ayollar uchun saroyning ichki hovlisi ajratilgan. Shu boisdan ham ularning har biriga xizmat qilishi uchun, ya’ni boshqacharoq qilib aytganda, ichki saroy xo‘jaligini yuritish⁶² uchun 30 nafardan 100 nafargacha xodimalar saqlangan.

Ichki saroy xo‘jaligini yuritish uchun *kungnyollar* bo‘limlarga bo‘linib, bu bo‘limlar alohida nomlar bilan yuritilgan: *chimil* [지밀 (至密)], *chimbang* [침방 (針房)], *subang* [수방 (繡房)], *sojubang* [소주방 (燒廚房)], *sengguabang* [생과방 (生果房)], *sesugan* [세수간 (洗手間)], *sedapbang* [세답방 (洗踏房)],

thuesongan [퇴선간 (退膳間)] kabilar. *Chimil kungnyo* qirolik xonadoni vakillarini xobxonasiga kuzatib qo'yish uchun, *chimbang kungnyo* ularni kiyintirib qo'yish uchun, *subang kungnyo* tikish-bichish ishlari uchun, *sojubang kungnyo* taomlarni tayyorlash hamda dasturxonga tortish uchun, *sengguabang kungnyo* qirol iste'mol qilishi lozim bo'lgan mevachevalar uchun, *sesugan kungnyo* hammom qabul qilish va yuvinish ishlari uchun, *sedapbang kungnyo* kir-chirlarni yuvish va quritish uchun, va nihoyat, *duesongan kungnyo* taomlanilgandan so'ng idish-tovoqlarning yuvilishi uchun mas'ul saroy xodimalari bo'lishgan. Shu tariqa, har bir bo'limga bir necha nafardan ayollar biriktirilgan.

"Kyongguk tejon"da belgilangan tartibni biz yuqorida ko'rib o'tgan edik: saroydagi qirol oilasidan tashqari barcha ayollar 1-dan 4-ranggacha *tebu* (*xugunglardan tashkil topgan*) hamda 5-dan 9-ranggacha *sa* (*kungnyolardan tashkil topgan*) ikki alohida qismga bo'linar edi. Ayni vaqtida yangban byurokratlar ichida *saga* o'xshab 5-dan 9-rangga tushadigan *kungnyo* 7-rangni chegaralaydigan yangban byurokratlarining *chamsanggvan* [참상관(參上官 : 4 – 6-ranglar)] va *chamhagvan* [참하관 (參下官): 7 – 9-ranglar]ga moslab yana boshqatdan nomlar belgilangan. 5 – 6-ranglar *sanggun* [상궁], 7 – 8-ranglar *chonbin* [전빈(典賓)], 9-rang *chu* [주 (奏)], musiqa ijro etish vazifasi mana shu rangdagilarga yuklatilgan] deb nomlangan.

"Kyongguk tejon"da saroya ayollarni qanday tanlab olinishi hamda ularning yashash joyi haqida aniq ko'rsatmalar keltirilmagan. Saroy xonimlarining tanlab olinishi va yashash sharoitlari saroyning o'sha vaqtdagi moliyaviy, mafkuraviy hamda siyosiy holatidan kelib chiqib amalgalash oshirilgan.

Shunday qilib, saroyda ma'lum bir maqsad va sohalar asosida shakllantirilgan tizimga bo'ysunuvchi ayollar qatlami shakllangan. Yuqoridagi har bir bo'limning o'z boshqaruvchisi bor edi. Eng yuqorida *chejosangun* [eng yuqori darajali sanggunlar – 제조상궁 (提調尙宮)], undan quyida *pujisangun* [ikkinci darajali sanggunlar – 부제조상궁], *kamchalsangun* [yoki "nazoratchi sangun" – 감찰상궁]

(監察尙宮)], *kakpansangun* [“har bir xonaga mas’ul xodima” 각방상궁 (各房尙宮)], *kakpannein* [각방내인 (各房內人)] kabilar turishgan. *Sekjang* [색장 (色掌)] lavozimidagi ayol xodimalar kotibalik bilan shug’ullanishgan, ya’ni, bo‘limlar bo‘ylab matnlar, murojaatlar kabilarni yozib borishga mas’ul bo‘lsa, *pangja* [방자 (房子)]lar saroy xonimlari uchun xonalarning tozaligini saqlash yoki maxsus topshiriqlarni bajaruvchi xodima bo‘lgan. Bu tartib huddi alohida davlat apparati kabi boshqaruv, nazorat va hattoki jazolov funksiyalarini bajarar edi.

Yi sulolasidavrida qirolicha va shahzodalarining rafiqalari odatda o’n yosh atrofida kelin qilingan. Ular saroyga olib kelinganda o‘zlari bilan enaga [유모]lari hamda oqsoch [몸 ≠ + ○]lari bilan kelishgan. Misol uchun, saroyga kelin sifatida keltirigan Hong xonim o‘zi bilan enagasi Ajini va oqsochi Pokryeni olib kelgan edi. Saroyda yashagan butun umri davomida bu ikki ayol xonimning xizmatida bo‘ladi, huddi haqiqiy onasi kabi og’ir kunlarida yelkadosh bo‘lishadi. Bu haqida Hong xonimning o‘zi quyidagicha yozib qoldirgan: “Pokrye meni g’am huddi tana a’zoim kabi o‘rab olganda yonimda bo‘lib, og’ir qayg’u va shodlik, qiyinchilik va xursandchiliklarimni bilgan holda (enagam bilan birgalikda) ellik yil davomida zo‘r kuch bilan xizmatimda bo‘lishdi”.⁶³

Shu tariqa, *ponpangneinlar* o‘zlaridan boshqa saroy xonimlariga qaraganda kuchliroq sohibalarga ham xizmat qilishgan, shu sababdan kelib chiqib ularning taqdiri o‘z sohibalarining taqdiri bilan bog’liq bo‘lgan, ya’ni oddiy saroy xonimlaridan farqli ravishda, malikalar, qirolning shaxsiy kanizaklari yoki yirik saroy bekalari kabilarning salgina noto‘g’ri faoliyati tufayli ular bilan birga bu xonimlarning xizmatidagi ayollarning ham taqdiri butunlay o‘zgarib ketgan, hattoki ularga qo‘sib o‘ldirib yuborish hollari ham tez-tez uchrab turgan. Shu boisdan ham, saroydagi barcha toifa ayollar ularga singdirilgan saroy odob-axloqi qoidalariga so‘zsiz bo‘ysungan holda, nima bo‘lmashin, qirov va qirov oilasiga o‘z sadoqatlarini namoyon qilishlari lozim edi.

“Kyongguk tejon”da saroy xonimlari uchun ichki ishlar boshqarmasi qoidalari va *sejanggun* qoidalaringina belgilab berilgan. Yangi tartibga ko‘ra, qirollik xonadoning har bir a’zosi ixtiyorida – qirolning o‘zi ham, albatta, – shaxsan ularning o‘ziga bo‘ysunuvchi saroy xonimlari bo‘lgan. O‘z sohibining martabasi hamda ehtiyojlaridan kelib chiqib 30 nafardan 100 nafargacha saroy xonimi biriktirilgan. Masalan, qirol hamda qirolichaning har biri huzurida 100 nafardan saroy xonimi hozir turgan. Valiaxd shahzodaga 60 nafar, valiaxdning o‘g’liga 50 nafar, valiaxd shahzodaning rafiqasi bo‘lmish malikaga 40 nafar, vaiaxdning keliniga 30 nafar saroy xonimi biriktirilgan. Barchasini birlashtirib hisoblaganda bir vaqtning o‘zida qirol saroyida 500 nafarga yaqin ayol xizmat qilar edi.

Yuqorida *kungnyolarning vazifalariga* ko‘ra nomlanishi (*chimil*, *chimbang*, *sesugan* va hokazo) hamda qanday ishlarga mas’ulligini ko‘rib chiqqan edik, bundan tashqari saroydagi farzand tarbiyasi, ularga tug’ilganidan boshlab enagalik qilish ham ularning vazifalari doirasiga kirgan.

Saroy xonimlarining darajalanishi ular saroyga keltirilgan zahotiyooq amalga oshirilmagan. Ma’lum bir bosqichlardan o‘tish talab qilingan. Keltirilgan qizlar umumiyl *kungnyo* yoki *yeogvan* nomi bilan atalaverган, ammo *sanggun* toifasiga chiqishi uchun *chimil* darajasidagilarga 25 yil, qolganlarga esa 35 yil davomida saroyda xizmat qilishi lozim bo‘lgan. Boshqacha qilib aytganda, *kungnyolarning enf yuqori toifasi sanggun* va *nein* deb atalgan. Sanggunlarga “*mamanim*” [‘마마님’], neinlarga “*xanganim*” [‘항아님’] deb murojaat qilishgan.

Saroy xodimalari taqsimlangan bo‘limlarning barchasida biror bir amaliy faoliyat bilan shug’ullanishgan bo‘lsa, ularning ishlab chiqarishini boshqarib boruvchi alohida *sanggun* [제조상궁]lar guruhi mavjud edi. Bundan tashqari, xo‘jalikni nazorat qiluvchi, omborning holatiga mas’ul bo‘lgan, ikkinchi darajali sanggunlar va har saroyning har bir qismida nazoratchi kungnyolar bo‘lgan. Bir vaqtning o‘zida *chimil*, *chimbang*, *subang*, *sojubang*, *sesugan*larga yordam beruvchi ikkinchi darajali *sekjang* [색장 (色掌)], *pogi* [복이 (僕伊)], *sumo* [수모 (水母)],

musuri [무수리], *phaji* [파지 (巴只)] va boshqalar ham bor edi. *Sekjang* saroydan tashqariga turli xat-xabarlarni yetkazgan, *pogi* chimilga olov yoqib bergen va *sumo esa* yuvinish uchun suv olib kelgan, *musuri* suvni qaynatib bergen; *phaji chimilning topshiriqlarini* yoki tozalash ishlarini bajargan. Kungnyolar o‘zlariga biriktirilgan vazifalarni bajargach, o‘z uylarida istiqomat qilishgan. Kungnyo, nein kabi rasmiy saroy xonimlarining shaxsiy uylarida alohida xizmatchi ayollar yordam berishgan.

Butun bu tizimni nazorat qiluvchi prokuraturaga o‘xshash nazorat instituti ham shakllantirilgan edi. Bu institut to‘lig’icha yuqori darajali nazoratchi sanggunlar

[*kamchalsanggun* – 감찰 상궁, ularni shuningdek, nazoratchi freylinalar (감찰 시녀(侍女)) deb ham atashgan] bo‘lib, ular bosh sanggunlarga bo‘ysunishgan.

Kungnyolar bilan bog’liq bo‘lgan biror qonunqoidalarning buzilishi holati kuzatilsa, nazoratchi sanggunlar eng oldin qoidabuzarlik sodir etilgan yoki etilmaganini aniqlashgan, shundan so‘ng, surishtiruv-tergov ishlarini boshlashgan. Kungnyoning saroy normalarini buzgani aniqlansa, tegishlicha jazo choralari qo‘llashgan. Agar qilingan jinoyati jiddiy deb topilib, og’ir jazoga oyiq ko‘rilsa, bu holatda ishni Choson qirolligi davlat administratsiyasi [Kukchong – 국청(鞠廳)] nazoratga olgan, jazoni tayinlash hamda ijro etishni ham bu tashkilot amalga oshirgan.

Shu shaklda Choson qirolligi saroyida murakkab, ammo ayni vaqtida mukammal tizim o‘rnatilgan. Bu tizimga kirish uchun har yili minglab qizlar tanlab olingan, sinovdan o‘tkazilgan. Saroya kelganidan so‘ng ham anchagina jiddiy raqobatga duchor bo‘lishgan. Bu raqobatdan muvaffaqiyatli o‘tganlar nafaqat saroyda, balki poytaxtda ham nufuz va ta’sirga ega bo‘lishgan. Saroy xonimlarining Choson qirolligi saroyidagi o‘rni ular bajargan amaliy ish bilangina belgilanib qolmasdan, ular qirollik saroyi hayoti madaniyatiga ta’sir o‘tkazgan, ular she’riyat bilan shug’ullangan, kiyinish va ovqatlanish borasida yangiliklar qilish bilan shug’ullanishgan.